



BOLALARNING O'Z IQTIDORLARINI NAMOYISH ETISHGA TO'SQINLIK QILUVCHI OMILLAR

Nodira Imomqulovna

Navoiy pedagogika institute 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bevosita ijtimoiy hayotimizga qaratilgan. Ayniqsa undagi iqtidorli bolalarning o'z qobiliyatlarini namoyish eta olishiga to'sqinlik qiluvchi omillarga urg'u beriladi va ularga yechim izlanadi.

Kalit so'zlar: san'at, iqtidor, ijtimoiy holat, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar, zamonaviy metodlar.

Bolaning san'at bilan shug'ullanishi uning ijodiy, hissiy, va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. San'at bolalarga nafaqat estetik go'zallikni his qilish imkoniyatini beradi, balki ularga o'zlarini ifodalash, boshqalar bilan muloqot qilish va muammolarni kreativ tarzda hal qilishda yordam beradi. San'at bilan shug'ullanish bolalarning nafaqat san'atga bo'lgan qiziqishini, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradi¹.

Albatta bolalarning qobiliyatlari individual shakllanadi. Ular turli sohalarga va yo'nalishlarga moyilligi sezilib turadi. Ammo san'at bilan shug'ullanish ularning aynan o'z qobiliyatlarini to'g'ri aniqlay olishga yordam beradi. Bola o'zi sevgan sohaga qiziqishi, biroq bu sohaga to'sqinlik, cheklovlar qo'yilishi yoki bolaning hech bir sohaga qiziqqa olmasligi kabi omillarni bu bolaning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sirasiga kiradi. Bu borada pedagog bolaning qiziqishlariga va uning tanlov qila olishiga yordam bera olishi kerak. Ammo ba'zan bolalar o'zlari xohlamagan kasb va sohalarga

¹ Sharipova G. M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. "Turon-Iqbol" ashriyoti Toshkent 2006 y. 23 b.



yo'naltiriladi. Va bu "o'zi xohlamagan sohaga kirgan shaxslar"² sonining ortishiga sabab bo'ladi.

"O'zi xohlamagan sohaga kirgan shaxslar" deganda, odatda o'z ixtiyori bilan tanlanmagan, lekin qandaydir sabablar yoki majburiyatlar tufayli o'sha sohada faoliyat yuritishga majbur bo'lgan shaxslar nazarda tutiladi. Bu holatlar turli omillar, jumladan, iqtisodiy muammolar, oilaviy bosim, jamiyatdagi kutishlar yoki ta'lim tizimidagi qoidalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda, shaxslar o'z orzu va maqsadlariga mos kelmaydigan sohalarga kirishadi va ko'pincha bu ularning ichki qoniqishlarini kamaytirishi mumkin. Bunga sabab bo'luvchi bir qancha omillarni ko'rib chiqish mumkin.

1. Ijtimoiy bosim va oilaviy xohishlar: Ba'zi shaxslar, masalan, ota-onalarining orzu va xohishlariga binoan ma'lum bir kasbni tanlashadi. Bu holatlarda odamlar ko'pincha o'z orzularini cheklashadi va oilaning istaklariga moslashishga harakat qilishadi. Misol uchun, san'at yoki adabiyot sohasida ishlashni xohlagan kishi, ota-onasining tibbiyot yoki huquq sohasida ishlashga bo'lgan talablariga javoban o'sha sohada ishlashga qaror qiladi.

2. Iqtisodiy sharoitlar: Ba'zan shaxslar moliyaviy jihatdan o'zlarining orzu qilgan kasblariga qaraganda boshqa sohalarga yo'naltirilishadi. Masalan, iqtisodiy beqarorlik, kasb tanlashda bir necha imkoniyatlarni cheklashi mumkin. O'zi san'atkor bo'lishni orzu qilgan kishi, yaxshi daromad topish maqsadida biznes yoki muhandislik sohasida ishlashga majbur bo'lishi mumkin.

3. Ta'lim tizimi va kasbga tayyorlov: Ko'pincha maktab yoki universitetda kadrlar tayyorlashda, o'quvchilarga o'zlarining haqiqiy qiziqishlariga mos kelmaydigan sohalar taklif qilinishi mumkin. Masalan, ayrim o'quvchilarga o'zining istagi bilan tanlamagan sohalarda o'qish yoki ishlashga majbur bo'lishi mumkin.

4. Shaxsiy qiziqishlar va imkoniyatlarni cheklash: Ba'zi shaxslar o'zlarining haqiqiy istaklariga zid ravishda ishlash yoki muvaffaqiyatga erishish maqsadida o'zi xohlamagan

² Tadiqotchi tomonidan kiritilgan nom.



sohalarda faoliyat yuritishi mumkin. Bu ko'pincha o'z-o'zini rozi qilmaslik yoki kasbda o'zini baxtsiz his qilishga olib kelishi mumkin.

Bunday holatlar odatda shaxsning ichki qoniqishi va hayotdagi muvaffaqiyatlari bilan bog'liq turli muammolarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ba'zi odamlar bu kabi majburiyatlarni bajarish orqali o'z orzulariga erishishga va muvaffaqiyatga erishishga intilishadi.

Ijtimoiy bosim va oilaviy xohishlar aspektida o'z pedagogik faoliyatim tajribalaridan kelib chiqqan holda yondashamiz

Pedagogik faoliyatimda davomida 6-sinf o'quvchilari bilan o'tiladigan "musiqa madaniyati" fanida, boshqalarga nisbatan qiziquvchan, chiroyli ovozga ega o'quvchi qizimiz bor edi. U haqiqatdan ham musiqaga ixlosi ancha baland va bu bir qarashda yaqqol sezilib turar edi.

Maktab binosida tashkil etilgan musiqa to'garagiga iqtidorli o'quvchim ham qatnashar edi. Mashg'ulotda o'quvchilar bilan ovoz mashqlari, qo'shiqlar va cholg'uda kuylar ijro ilar edik, yo'l yo'lakay esa dastlabki musiqiy nazartiy bilimlarni ham egallab borar edik. 6-sinf o'quvchim bilan tanlovga qatnashish maqsadida qattiq tayyorgarlik ko'rdik, asarlarni yod oldik, vokal mashg'ulotlari oliob bordik. Tanlovga ikki kun qolganida o'quvchi qatnashmasligini va bunga (qo'shiq kuylashga) ota onasining qarshilik ko'rsatayotganligini aytib qoldi...

Biz qobiliyatli bolalarning iqtidoriga qarshilik ko'rsatuvchi omilning ichki manbaasi sifatida aynan oilaviy sharoit muhitni nazarda tutdik. Bunday holatda maktab va pedagoglar ota-ona bilan ishlashi zarur bo'ladi.

Aslida hech bir ota-ona farzandiga yomonlik tilamaydi. Faqatgina farzandining kelajakda yaxshi hayot kechirishi muhtojlikda qolmasligini o'ylaydi. Shu sabab har bir ota-ona davrdan kelib chiqqan holda, qaysi sohalar ommalashgan va talabgir bo'lsa shu sohaga farzandini qiziqtirgisi keladi.



Musika bilan shug'ullanishga va aynan qo'shiq kuylash bilan shug'ullanishga qarshilik ko'rsatishning o'ziga yarasha bir nechta sabablari ham yo'q emas. Bu borada san'atkorlarning ayniqsa ba'zi qo'shtirnoq ichidagi estrada xonandalarining nojo'yi va noo'rin madaniyatsiz xatti harakatlari, o'zlarini tutilshlari va ba'zi bachkana qiliqlari, ayol xonandalarning esa moda ortida quvib kiyinish madaniyatidan yiroqlashishi va xalqning ularga bo'lgan qo'pol munosabati. Bularning bariga ommaviy madaniyatining mintalitetimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy tarmoqlardagi ahloqsizliklar, ayniqsa san'at ahliga "artist" deb qo'pol laqablar berilishi kelajak avlodning musiqachi bo'lishiga, xonanda bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi o'quvchimizning holati ham ayni shunday sabablarga ya'ni ota-onaning "farzandim artist bo'ladimi" qabilidagi, qaysidur ma'noda bu sohaga juda past nazar bilan baho berilayotganini bildirdi³.

O'quvchi bunday paytda o'zini juda noqulay va solg'in holatda tutar edi. Musika to'garagidan chiqib, ota onaning xohishiga binoan matematika va ingliz tillari to'garagiga qatnashishni boshladi. Biro z muddat o'tgach o'quvchining darslardagi o'quv darajasi ham sustlashib borayotganini sezdik. Bu holatdan men maktab rahbarlarini ogohlantirdim. Ota ona bilan suhbat jarayonlarini olib borishni boshladik. Ammo bu harakatlar besamar ketdi. Shunda o'quvchining hozirda qatnashayotgan to'garagini kamerada kuzatishni ma'qul topdik.

Kamerada o'quvchi to'garakka xohishining yo'qligi va u shunchaki darsda 45 daqiqaning o'tishini kutar edi. To'garakda deyarli faol ham bo'lmadi. Undan keyin ertasiga o'quvchini musika to'garagidagi mashg'uloti kuzatildi. Mashg'ulotda o'quvchi juda faol, o'ziga ishongan mashg'ulot rahbariga bir qancha takliflar ham berib, mashg'ulotning qanday o'tib ketganini sezmay ham qoldi. Bunga onasining o'zi ham guvoh bo'ldi.

Farzandining xohishi va qiziqishiga to'sqinlik qilish orqali bola o'zi sevmagan, o'zi xohlamagan sohaga bosh uradi. Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadi-ki Istimosiy bosim va

³ Tadqiqotchining pedagogik faoliyatida bo'lgan voqea



oilaviy xohish o'quvchining barcha energiyalardan mahrub bo'lishiga va bu boshqa sohalarga ham qiziqishning sustlashib qolishiga sabab bo'ladi.

Ota-ona bilan o'tkazilgan suhbatda ularni ko'ndirishga va iqtidorli o'quvchining o'z energiyasini va qobiliyatini o'zi xohlagan tomonga burib yuborishga muvaffaq bo'lindi. Demak bunday masalaning asosiy yechimi sifatida ota-onalar bilan ishlash va to'g'ri suhbat olib bora olish, sohaning salbiy tomonlaridan ko'ra ijobiy tomonlarini ochib bera olish kabi ma'suliyat, pedagoglardan keng dunyoqarashga ega bo'lish zaruratini talab qiladi.

Iqtisodiy sharoitlar ham yosh avlodning o'zlari sevgan kasbdan tanlash yoki tanlay olmaslik shartini qo'yadi. Moliyaviy yetishmovchilik ko'pincha musiqa bilan shug'ullanishni qiyinlashtiradigan omil bo'lishi mumkin. Musiqa — bu nafaqat san'at, balki ko'plab vositalar va resurslar talab qiladigan faoliyatdir. Moliyaviy yetishmovchilik sabab o'quvchining musiqa bilan shug'ullanishiga va uning iqtidorini rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan quyidagi omilni ko'rib chiqish mumkin.

Musiqiy cholg'ularning yo'qligi. Musiqa bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan cholg'ular — pianino, gitara, skripka, truba yoki boshqa har qanday musiqiy cholg'u, ko'pincha juda qimmat bo'lishi mumkin. Ularning o'zgarib turadigan narxlari, shuningdek, kerakli aksessuarlar, amplifikatorlar yoki boshqa yordamchi qurilmalar hamda texnik xizmat ko'rsatish narxlari, moliyaviy cheklovlar bilan to'qnash kelgan odamlar uchun katta muammo bo'lishi mumkin.

Musiqa ta'limi va qo'shimcha kurslar. Musiqa ta'limini olish, o'qituvchilardan darslar yoki musiqa maktablariga qatnash uchun ham mablag' kerak. Ko'plab o'qituvchilar yoki maktablar darslarini to'lash uchun yuqori narxlar belgilaydi, bu esa moliyaviy qiyinchiliklar bilan yuzlashayotganlar uchun to'siq bo'lishi mumkin⁴.

Musiqa o'rganish uchun vaqt va resurslar. Musiqiy faoliyatni rivojlantirish uchun ham vaqt va resurslar kerak. Oilaviy sharoitning yetishmasligi sabab ayrim o'quvchilar

⁴ Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2009 y 32 b.



ishlashi, o'qishi yoki boshqa shaxsiy majburiyatlarni bajarish bilan band bo'lishadi, bu esa musiqa bilan shug'ullanishga imkon bermaydi. Agar moliyaviy holat odamni doimiy ravishda ishlashga majbur qilsa, bo'sh vaqtni o'zgartirish va musiqa bilan shug'ullanish uchun joy ajratish juda qiyin bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqda tanilish va reklama. Ushbu tarmoq yaqin yillarda qo'shilgan bo'lib, zamonaviy texnologiyalar asrimizda eng global tarmoq hisoblanadi. Agar biror kishi musiqa yaratishni va uni boshqalarga tanitishni xohlasa, reklama va marketing uchun ham mablag' kerak bo'lishi mumkin. Musiqa sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun onlayn platformalarda reklama qilish, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini tanitish yoki konsertlar va chiqishlar tashkil qilish uchun pul sarflash talab etiladi.

Kultivatsiya⁵ va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi. Musiqa bilan shug'ullanishning muhim jihatlaridan biri — bu unga doir ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdir. Ba'zi odamlar o'z shaxsiy va oilaviy sharoitlari tufayli musiqa yoki san'atga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga vaqt ajratish yoki qo'llab-quvvatlash imkoniga ega bo'lmaydilar⁶.

Moliya insonlarning orzu va istaklarini amalga oshirishda katta to'siq bo'lishi mumkin. Musiqa, bu juda ko'p odamlar uchun nafaqat sevimli mashg'ulot, balki hayotlarini ma'no bilan to'ldiradigan bir faoliyatdir. Ammo, bu faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy vositalar va resurslar mavjudligi ko'pincha odamlarning bu san'atchilikni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shunga qaramay, bugungi kunda mavjud bo'lgan ko'plab bepul resurslar va onlayn o'quv materiallari, shuningdek, kreativ ishlash va musiqa yaratishda muayyan imkoniyatlar yaratish mumkin.

Yuqoridagi oilaviy sharoit va moliyaviy yetishmovchilik o'quvchi iqtidorini namoyish etishga to'qinlik qiluvchi ichki aspektlardan bo'lib, bunga yechim faqat

⁵ **Madaniyat va jamiyatshunoslik ma'nosida:** Kultivatsiya - bu ma'lum bir sohada bilim va qadriyatlarni rivojlantirish, jamiyatni ma'naviy, axloqiy yoki intellektual jihatdan boyitish jarayoni. Masalan, san'at, ilm-fan yoki axloqiy tushunchalarni rivojlantirish uchun muayyan tadbirlar, ta'lim va madaniy faoliyatlarni amalga oshirishni anglatadi.

⁶ Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. "Musiqa nashriyoti. Toshkent – 2010 y. 56 b.



maktabning o'zidagi to'garaklarda o'quvchi bilan ko'proq shug'ullanish, umumta'lim maktabi xo'jalik mudiri orqali maktab cholg'ularidan foydalanish uchun berib turish, turli xil ko'rik tanlovlar, bayramlar va kechalarda o'uvchini olib chiqish uni qo'llab quvvatlash orqali o'quvchining iqtidorini oshirish, eng muhimi o'ziga va tanlagan sohasiga bo'lgan ishonchini ortishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musiqtafoyev B. Musiqa o'qitish metodikasi. Buxoro – 2021 y.
2. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. "Musiqa nashriyoti. Toshkent – 2010 y.
3. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi "Musiqa" nashriyoti – 2005 y.
4. Sharipova G. M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. "Turon-Iqbol" ashriyoti Toshkent 2006 y.
5. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2009 y.
6. Назайкинский Е. Звуковой мир музыки. –М. 1988.